

# CHISHTIYA TARIQATI MUTAFAKKIRI NIZOMIDDIN AVLIYONING IJTIMOIY QARASHLARIDA MUROSA FALSAFASI

Razzoqov Qosimbek Quvanovich<sup>1</sup>

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada tasavvuf ta'limoti mazmuni, unga berilgan ta'riflar, tariqatlar to'g'risida, xususan, chishtiya tariqati hamda uning mutafakkiri Nizomiddin Avliyoning ijtimoiy-axloqiy qarashlarida murosa falsafasi xususida fikrlar yuritiladi.*

**Kalit so'zlar:** *Tasavvuf, tariqat, chishtiya tariqati, tarbiya, nafs, axloq, murosa-madora va komillik.*

Mustaqilligimiz zamirida respublikamizda tasavvuf ta'limoti va undagi tariqatlar xususida izlanishlar olib borish, o'rganish, manbalar bilan tanishish, tarjima qilish, atoqli mutafakkirlarning maqbaralarini qayta barpo etish hamda ta'mirlash ishlariga katta ahamiyat qaratib kelinayotgani muhim sanaladi. Binobarin inson hayotida komil inson bo'lishlik uchun haqiqat yo'lidan bormog'i darkor. Haqiqatni izlagan inson hayotda o'z o'rni va baxtini ham to'g'ri yo'lga yo'naltirgan inson sifatida ulug'lanadi. Shu borada inson yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi kurashish kerakligini tushunib etadi. Bugungi kunda jamiyatimizda olib borilayotgan ishlar samaradorligi ham Islom falsafasiga e'tibor ortayotganligidan dalolat beradi.

Tasavvuf – insonning kamolga, Haqqa etishishi yo'llari, usullari majmuasidir. Uni poklanish maktabi ham deyish mumkin. [4.B. 18]

so'fiy shoir Bobo Tohir bejizga tasavvufga quyidagicha "Tasavvuf – nafsoniy – hayvoniy hayotda o'lmoq va insoniy hayotda yashamoq" kabi ta'rif berib o'tmagan. Demak inson dunyoga faqat o'z nafsi yo'lida yashamoqlikni emas, balki bu sinovli dunyoda o'zini har tomonlama komillikka, ezgulikka chorlab faoliyat olib borishi lozimligini uqtiradigan ta'limot desak adashmagan bo'lamiz.

Tasavvuf ta'limoti tariqatlarini payg'ambarimiz alayhissalom avval Abu Bakr Siddiq raziyallohu anhuga o'rgatganlari haqidagi fikrlar shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning "Tasavvuf haqida tasavvur" nomli kitoblarida keltirilgan. Hamda, "Tarixi Muhammadiy" asarining muallifi Alixonto'ra Sog'uniy ham o'z kitobida tariqat ilmini Payg'ambarimiz xos sahobalardan Abu Bakr Siddiq, Salmon Forsiy, Abu Zar G'iforiy, Abu Dardo roziyallohu anhularga ixtiyoriy ta'lim bergenliklarini bayon qilganlar. Piru murshidlarga beriladigan bay'atni ham payg'ambarimizga berilgan bay'atdan kelib chiqqanini keltirib o'tganlar.

Tasavvuf avliyolarini o'z mehnatlari bilan halol kasbkor qilib rizq topish, shu orqali oilasini, farzandlarini boqishni targ'ib qilib kelganlar.

Tasavvuf nafsni tarbiyalashdir: sog'lom iroda, go'zal xulq, solih amaldir. Tasavvuf yalqovlik, loqaydlik, miskinlik emas, chunki Islom olamida o'tgan eng buyuk yo'lboshchilar, faol, g'ayratli kurashchilar, mujohidlar mutasavviflardan chiqqan. [6.B. 34]

<sup>1</sup> Jizzax politexnika instituti "Ijtimoiy fanlar" kafedrasi v.b dotsenti (PhD)  
razzoqovqosimbek86@gmail.com



Tasavvuf ta'limoti islom olamida o'ziga xos bir qancha yo'naliishlarda, faoliyat olib borgan bo'lsada, keyinchalik esa Hindiston o'lkasida ham ko'rishimiz mumkin.

Jumladan, Chishtiya tariqati va uni hind o'lkasida keng va atroflicha taraqqiy etishida, ayniqsa, XIII-XIV asrlarda Hindistonda so'fiylar orasida ulug' izdosh va Farididdunning suyukli hamda mashhur shogirdlaridan biri qolaversa mazkur tariqatining gullab yashnashida ham o'zining beqiyos xizmat va maslahatlarini ayamagan Dehlilik shayx Nizomiddin Avliyo (1242-1325 yy) nomi bilan ham bevosita bog'liqdir.

Shayx Nizomiddin Avliyo 1238 yilda Hozirgi Uttar Pradesh shtati hududidagi Badaun nomli joyda dunyoga kelgan. Otasi Ahmad Badayuniy, onasi Bibi Zulayho. Ajdodlari Buxorodan. Dehl turklar tomonidan bosib olinguniga qadar Badaun musulmonlar markazi edi. Bu erga O'rta Osiyo, Huroson va Guradan ko'p sonli ko'chmanchilar ko'chib kelishgan. Jumladan, Nizomiddinning Bobosi Doniyol Buxorodan Hindistonga ko'chib kelgan. Otasi vafotidan so'ng Dehliga kelib yashay boshlagan.

Hindiston tarixida XIII-XIV asrlarda so'fiylar orasida ulug' izdosh, Chishtiya tariqatining yanada taraqqiy etishi Dehlilik shayx Nizomiddin Avliyo bilan bevosita bog'liqdir. Yoshlik chog'idan qiyinchiliklarni boshdan kechirgan bo'lsada, tariqat olamida "Avliyolar sultonii" va "shayxlar sultonii" kabi nomlarga tuyassar bo'ldi. Bunga sabab esa, o'zining iste'dodi va intiluvchan tirishqoqligidir.

Yosh Nizomiddin qalbida ma'naviy kasb va ilohiy ilmga qiziqliki kuchli bo'lganligidan u Bobo Farid bilan uchrashish uchun Dehli tomon yo'l oladi. Keyinchalik esa Bobo Farid bilan Ayudxonada uchrashib, pand-nasihatlarini eshitib, va ularga hayoti davomida amal qiladi. Chishtiya tariqatining yozma manbalari, shayxlarning suhabatlari, ularning xat-xabarları (muktubat) yozuvlaridan iborat bo'lib, shogirdlari tomonidan yozib borilgan.

Lekin shuni ham unutmaslik kerakki, mazkur tariqat vakillari o'z qarashlarini og'zaki shakl bilan birgalikda, pandnomalar uslubiyatida ham olib borishgan. Qolaversa o'z faoliyatlarida ochiqilik, bag'rikenglik, mehmondo'stlik kabi gumanistik g'oyalarini ham amalda tatbiq etishgan.

Bugungi kunda murosa falsafasini tadqiq etishning g'oyaviy asoslaridan biri Chishtiya tariqatining bag'rikenglik g'oyasidir. Bu ta'limotdagagi muvofiqlik, uyg'unlik, ixtilosiz hayot tarzi, ozor bermaslik, butun borliqqa muhabbat, murosa va madora bilan yashash tarzini targ'ib etish, barqaror va xavfsizlikni ta'minlaydigan yo'l va vositalardir. Insonning o'z-o'zini idora etish, nafsiyi tiyish va boshqara olishi, nafs tarbiyasi masalasi axloqan fazilatli kishini tarbiyalash uchun muhim hisoblanadi.

Binobarin birinchi prezidentimiz Islom Karimov o'z asarlarida ta'kidlaganidek, "Ko'pchilik ichida yashash insondan nafsiyi tiyishni atrofdagilarni o'z haqidagi fikri bilan hisoblashib umr kechirishni talab qiladi. Aslida inson ehtiyojlari cheksiz bo'lib, unga doimo nimadir etishmaydi. Lekin har bir odam nafsi balosidan xalos bo'lishga intilmog'i kerak. Chunki, hamma kulfat balosi ana shu nafsi balosidan kelib chiqadi" [1.B. 23] deb yozadi. Barkamol inson tarbiyasida Chishtiyaning komil inson va uni tarbiyalash yo'llarini o'rganish samarali natijalarga erishishga asos bo'la oladi.

Binobarin, Nizomiddin Avliyo ham o'zining axloqiy qarashlarini, faoliyatlarini davomida Chishtiya tariqatidagi ezgu g'oyalariga amal qilish bilan birga shogirdlari va muridlariga ham ana shunday komillik, insonparvarlikni namoyon eta olgan shayxlardan biri hisoblanadi.

Alloma sifatida Nizomiddinning ijtimoiy qarashlarida uning o'ziga xosligi ko'rinish turardi: Masalan, rasmiy ibodat yig'inlarida qatnashish va diniy amallarni bajarishdan ko'ra kambag'al hamda muhtojlarga yordam ko'rsatishni maqsadga muvofiq deb o'yaldi. Allohga bo'lgan muhabbat, insonlarga nisbatan bo'lgan muhabbat orqali namoyon bo'ladi, degan aqidani qo'llaganligi bois kambag'al va muhtojlarga sahiylik bilan moddiy yordam sifatida pul tarqatar edi. Shu bilan birga o'zining moddiy farovonligiga katta zarar keltirardi. Uning xayrli ishlari va oddiy xalqning



qashshoqligiyu muhtojligini chuqur anglashi nafaqat Dehli sultanatida, balki qo'shni viloyatlarda ham mashhurlikka sazovor bo'ldi.

Ahli tasavvufning yana bir targ'ib qiladigan narsalaridan biri bu yomonlikdan o'zini tiyib, faqat yaxshilik qilishga chaqirishdir. Hattoki, bunda yomonlik qilgan insonga ham yaxshilik qilish bilan javob berish kerakligi ham uqtiriladi. Jumladan, So'fi Olloyor shunday deydilar:

Otang Erdur sen ham erdek qiliq qil,

Yomonlik aylaganga - yaxshilik qil.

Shu kabi hikmatomuz, nasihatona aytilgan g'azallar, ruboiylar xalqimizning yuksak ma'naviyat egalari bo'lib tarbiyalanishlarida beqiyos xizmat qilgan va bugun ham xizmat qilib kelmoqda. Ularning qoldirib ketgan boy meroslari asrlar osha yashab, o'lmasdan kelishi bejizga emas. Chunki ularning bu so'zlarida qancha-qancha hikmat borligini hayotning o'zi ham isbotlab turibdi. Lekin shuni ham unutmasligimiz kerakki, "hikmatni Alloh taolo xohlaganiga beradi. Kimga hikmat berilsa, unga ko'p yaxshiliklar berilibdi" deb Qur'oni karimda marhamat qilingan.

So'fiylarning nafsi o'lik, qalbi tirik deb ta'riflarning berilganligi ham bejizga emas. Tasavvufning maqsadi insonni komillikka etaklab nafsni tarbiyalaydi. Komil odam uchun eng katta dushman nafs, ko'rolmaslik ekanligini tushuntiradi.

Shayx Muhammad Amin al-Kurdijning fikricha, tasavvuf ta'limotida solihlar mashoyix yoki avliyonni ko'rmoqlikdan ko'ra, ma'naviy, ruhiy foydani ularning hayoti, axloqiy sifatlari va qilgan amallari to'g'risida o'rganib bilib oladilar. U tasavvufga doir asarlarni o'qish insonni axloqiy va ma'naviy jihatdan tarbiyalaydi, deb hisoblaydi.[4]

Muxtasar qilib aytganda mazkur tariqatlar asnosida shunday xulosaga kelish lozimki, ularda ko'proq amaliy axloqqa e'tibor berilganligini kuzatish mumkin. Insonni kamol topishida ko'pgina ijobjiy xislatlarga boy bo'lib yashashida manba va ta'limotlar ko'p bo'lsada, biz faqat yuqorida tasavvuf ta'limoti hamda mazkur tariqatlardan biroz bo'lsada, ma'lumotlar bilan o'rtoqlashishga harakat qildik, va bular haqida kimlar uchundir takrorlash bo'lsa, kimlar uchundir esa yangi ma'lumotlar sifatida gavdalanadi.

Shuni ham unutmaslik kerakki, tasavvuf ta'limotida ko'pgina tariqat shayxlari katta tarbiya ko'rganligi va o'z shogirdlariga o'rnak bo'la olishliklarini tarixdan isbotlab berganlar. Demak, Biz ularni o'rganish asnosida yoshlarimiz axloqiy va ma'naviy dunyoqarashi boyishiga ma'lum darajada hissamizni qo'sha olsak juda ham mammun bo'lar edik.

## Foydalilanigan adabiyotlar

1. Karimov I.A. O'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan qurmoqdamiz. – T.: O'zbekiston, 1999.
2. Hamidjon Homidiy "Daholar davrasi". "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent-2011. 301 bet
3. Alisher Navoiy. Nasoyim ul-muhabbat. Mukammal asarlar to'plami. Yigirma jildlik. 17-jild. – T.: Fan, 2001. 150 bet.
4. N.Komilov. Tasavvuf. 2- kitob.-T.: "O'zbekiston", 2000. 210 bet.
5. Vohidov R., Ne'matov H., Mahmudov M. So'z bag'ridagi ma'rifat. Toshkent: Yozuvchi, 2001 yil 145 bet.
6. Jo'shon Mahmud As'ad. Tasavvuf va nafs tarbiyasi. Toshkent: Cho'lpon, 2000. 182 bet.
7. Kuvanovich, R. K. (2023). ATTENTION TO EDUCATION IN THE CHISHTIYA SECRET. Research Focus, 2(2), 111-114.
8. Quvanovich, R. Q. (2021). The Moral Importance of Humanity and Patriotism in Chistiya and Kubraviya. International Journal on Orange Technologies, 3(3), 98-103.
9. РАЗОКОВ, К. ЭКОНОМИКА И СОЦИУМ. ЭКОНОМИКА, (9), 542-545.



10. Yaxyayevna, R. B. (2023). We Will Not Allow Ignorance to Replace Enlightenment. *Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences*, 2(3), 23-26.
11. Yaxyayevna, R. B. (2023). The Role of the Neighborhood in Preparing Young People for Family Life. *AMERICAN JOURNAL OF SCIENCE AND LEARNING FOR DEVELOPMENT*, 2(3), 37-40.
12. Tajibaev, M. A., & Rashidova, B. Y. (2022). Content of the concept of synergetics. *Scientific progress*, 3(3), 938-941.
13. Рашидова, Б. (2022). ЎОКСАК МАЪНАВИЯТ АВВАЛО ИНСОН ОДОБИДА НАМОЁН БЎЛАДИ. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(12), 351-355.
14. Yaxyaevna, R. B., & Nurbek, A. (2023). MA'NAVIYAT JAMIYAT HAYOTINING JONI VA RUHI. In " ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (Vol. 1, pp. 503-506).
15. Yahyaevna, B. R. (2023). Education-First of All, it Means Immigration of Knowledge to the Child through Kindness, Attention and Care. *AMERICAN JOURNAL OF SCIENCE AND LEARNING FOR DEVELOPMENT*, 2(1), 161-168.
16. Yaxyaevna, R. B., & Nurbek, A. (2024, February). KELAJAGIMIZNI YOVUZ KUCHLAR QO'LIGA BERIB QO'YISHGA HAQQIMIZ YO'Q. In *INTERNATIONAL CONFERENCE OF NATURAL AND SOCIAL-HUMANITARIAN SCIENCES* (Vol. 1, No. 2, pp. 32-36).
17. Rashidova, B. Y. (2023). YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHDA MAHALLANING TUTGAN O 'RNI.
18. Obidova, F., Umarova, Z., & Rashidova, B. (2024, March). Opportunities to increase the efficiency of the development of tourism services (In the example of Jizzakh Region). In *AIP Conference Proceedings* (Vol. 3045, No. 1). AIP Publishing.
19. Tajibaev, M. A., & Rashidova, B. Y. (2022). The concepts of sustainability and instability in synergetics are an important principle. *Scientific progress*, 3(3), 930-933.
20. Rashidova, B. Y. (2023). QUALITY EDUCATION AND TRAINING IS THE DEMAND OF THE TIMES. *Экономика и социум*, (2 (105)), 300-303.
21. Yahyoevna, R. B. (2022, March). WAYS AND WAYS TO PREVENT POVERTY (ON THE EXAMPLE OF UZBEKISTAN). In E Conference Zone (pp. 39-42).
22. Yakhyaevna, R. B., & Tulembaevna, M. S. (2024). Education of Youth in the Spirit of Patriotism. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 3(3), 338-342.
23. Узоков, Б. (2022). АЛИШЕР НАВОЙЙНИ АНГЛАШ ФАЛСАФАСИ. *RESEARCH AND EDUCATION*, 262.
24. Узоков, Б. (2022). ГЛОБАЛЛАШУВ ЖАРАЁНЛАРИНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(12), 347-350.
25. УЗОКОВ, Б. (2023). БУНЁДКОРЛИК, ЯРАТУВЧАНЛИК, ҲАР ДОИМ ЎҚИШ ВА ИЗЛАНИШДА МУЖАССАМДИР. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 11(5), 10-15.
26. Fayzullayeva K. A. YANGI O 'ZBEKİSTONDA TURİZİM //Educational Research in Universal Sciences. – 2024. – Т. 3. – №. 1. – С. 619-624.
27. Файзуллаева К. А. ТАРИХИЙ ҚАДРИЯТЛАРГА ТҮҒРИ МУНОСАБАТНИ ШАКЛАНТИРИШ //MODERN SCIENTIFIC CHALLENGES AND TRENDS. – 2019. – С. 111.
28. Abdullayevna F. K., Qizi R. S. D. F. AFG 'ONİSTON MARKAZIY OSIYODAGI MINTAQAVIY XAVFSIZLIKNING KAFOLATI // " ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM. – 2023. – Т. 1. – С. 479-482.



29. Abdullayevna F. K. THE HISTORY OF SPECIAL CAMPS IN GERMANY DURING THE SECOND WORLD WAR //CURRENT RESEARCH JOURNAL OF HISTORY. – 2022. – T. 3. – №. 01. – C. 1-5.
30. Файзуллаева К. Реформы в сфере образования.//Вестник НУУз.Тошкент-2024.-1/11/1. –C. 71-73.

